



THE DIALECTICS OF SPIRITUAL CULTURE, NATIONAL THINKING, AND THE NATIONAL-CULTURAL INTERPRETATION OF HISTORY

Javlon Kuchkorov

Head of the Department of "Uzbek Language and Humanities," PhD

Kattakurgan State Pedagogical Institute

E-mail: j.quchqorov@gmail.com

Kattakurgan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Language and culture of nations and peoples, dialectical cultural understanding of national history, national idea and dialectics of democratic changes.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article discusses the development of the language and culture of all nations and ethnic groups living in the Republic of Uzbekistan. Social units of people and their aspects - material, spiritual and political-legal culture - are the main areas of cultural existence. The main links that determine the level of binding and consensuality of social relations between legal subjects, such as equality, justice and freedom, and their guarantee.

MANAVIY MADANIYAT, MILLAT TAFAKKUR VA TARIXNI MILLIY MADANIY TUSHUNISH DIALEKTIKASI

Javlon Quchqorov

"O'zbek tili va gumanitar fanlar" kafedrasini mudiri, PhD

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika Instituti

j.quchqorov@gmail.com

Kattaqo'rg'on, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Millat va elatlarning tili va madaniyati, millat tarixni dialektik madaniy tushunish, milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasi.

Annatatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tili va madaniyatini rivojlantirish. Kishilarning sotsial birliklari va uning tomonlari – moddiy, ma'naviy va siyosiy-huquqiy madaniyat madaniy borliqning asosiy sohalaridir. Huquq subyektlar o'rtasidagi tenglik, adolat va erkinlik kabi ijtimoiy munosabatlarning majburiylik va kelishuvchilik hamda ularni kafolatlash

ДИАЛЕКТИКА ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ, НАЦИОНАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ И НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО ПОНИМАНИЯ ИСТОРИИ

Джавлон Кучкаров

Заведующий кафедрой «Узбекский язык и гуманитарные науки», PhD

Каттакурганский государственный педагогический институт

E-mail: j.quchgorov@gmail.com

Каттакурган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Язык и культура наций и народов, диалектическое культурное понимание национальной истории, национальная идея и диалектика демократических преобразований.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие языка и культуры всех наций и народностей, проживающих в Республике Узбекистан. Социальные образования людей и их аспекты – материальная, духовная и политико-правовая культура – являются основными сферами культурного бытия. Выделяются основные связи, определяющие степень обязательности и согласованности социальных отношений между субъектами права, такие как равенство, справедливость и свобода, и их гарантии.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tili va madaniyatini rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni ta'minlash mexanizmini takomillashtirish borasida tizimli ishlar bugungi kunda amalga oshirilmoqda. Biron-bir millat yoki bir necha millatlar mamlakat sifatida hududiy birlashganlar, bu birlikni siyosiy-huquqiy jihatdan mustahkamlaganlar. Jamiyatni xalqaro darajada butun deb olsak, mamlakatlar va ularning subyektlari – xalqlar va millatlar esa uning tarkibiy qismlaridir. Jamiyat rivojlanishining bu umumiy substansional qonunlari har bir ijtimoiy hodisalar harakatida ustivorlik qiladilar, transformatsiyalashadilar va o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladilar. Bu o'ziga xos substansional rivojlanish milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasida ham mavjuddir. Qur'oni Karimning "Moida surasi" 48-oyatida "...Agar Olloh xohlasa edi, hammangizni bir millat qilib qo'ygan bo'lur edi" [1,144], deyilsa, hadislarida "Kimki biror millatni dilidan sevsa, qiyomatda Tangri o'sha millat sifatida tiriltiradi" [2,140], degan o'git berilgan. Demak, barcha millatlar Xudoning teng huquqli bandalaridir. [3,12] Shunday ekan, diniy ta'limotlar bo'yicha Yaratgan egam har bandasining rizq-ro'zini ham bergan bo'ladi. Har bir bandaning bu rizq-ro'zini topishi esa "sendan harakat, mendan barakat" tarzida amalga oshadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, manfaat har bir subyektning, u xoh, yakka inson sifatida bo'lsin, xoh, mikrobirliklar bo'lsin, xoh, makrobirliklar, jumladan, millat darajasida bo'lsin, o'z statusi, ya'ni maqomi-mavqeini saqlab qolishidir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ona yurtimizda qadimgi davrdan Qadimgi Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona deb nom olgan mamlakatlar – davlatchiliklar kelib chiqqanligi, yana shuningdek, qadimgi davrda mustamlaka Ahamoniylar va Grek-Baqtriya davlatchiliklari, so'ngra Parfiya, Qang', Dovon va Kushon mamlakatlari, o'rta asrlarda Eftaliylar, Turon xoqonligi, mustamlaka Arab xalifaligi, Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, mustamlaka Mo'g'ullar, Amir Temur, Shayboniylar, Ashtarxoniylar davlatchiliklari, Xiva xonligi, Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi davlatchiliklari, yangi davrda Turkiston general-gubernatorligi va sovet mustabid-mustamlaka tuzumi, O'zbekiston xalqlarining eng yangi davrida esa Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topganligi faktlarini ko'ramiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, - mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini... chuqur o'rgatish vazifalari hali sifatli va to'liq holda yechilgani yo'q". [4,45]. deb takidlab o'tgan.

Demokratik fuqarolik jamiyati har bir mamlakatda o'ziga xos holda shakllanar ekan, uning asosiy subyektlari millatlardir. Millat va uning belgilarini aniqlash masalasida bugungi kunda O'zbekistonda ilmiy adabiyotlarda ikkita ijtimoiy-falsafiy konsepsiya shakllangan. Ulardan birinchisi – millat to'g'risidagi tarixni materialistik tushunishga asoslangan konsepsiya. Ikkinchisi esa tarixni dialektik madaniy tushunishga asoslangan konsepsiya.

O'zbekistonda ham ilmiy adabiyotlarda millatni tushunishda iqtisodiy omillar birlamchiligi saqlanib qolmoqda. Bu yondoshuv tarixni materialistik tushunishga asoslangan yondoshuvdir. "Falsafa" faniga oid mamlakatimizda chop etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarida, - deydi tadqiqotchi I.N.Axmedov, - hanuz millatga berilgan tor doirada tushunishgan ta'rif-tavsif saqlanib qolmoqda. Millatning tomonlari uning belgilari sifatida va alohida jamiyat – mamlakatning sohalari sifatida aniqlangan. Ammo monografik tadqiqot ishlarida berilgan bu yangiliklar darsliklarga ko'chmagan. Bu holat milliy g'oyalarimizning ijtimoiy hayotning har bir sohalari bo'yicha maqsad va vazifalarini asoslashda qiyinchilik tug'diradi." [5,18].

I.Axmedov falsafa faniga "Bu borada "Ijtimoiy falsafaning predmeti", "Madaniy borliq (ya'ni madaniyat) – jamiyat mavjudligi va taraqqiyotining asosi" kabi birinchi tartibdagi mavzularni o'quv dasturiga kiritish lozim" [6,17], deb hisoblaydi. Tarixni dialektik madaniy tushunishning bu asosiy tamoyiliga biz ham qo'shilamiz. Agar ushbu mavzu ijtimoiy falsafa faniga kiritilsa, tarixni dialektik madaniy tushunishga asoslangan ijtimoiy falsafa va "Milliy

g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasi"ni o'rganishning yangi metodologik qoidalari shakllanadi. Masalan, ushbu tushunish doirasida "Inson ehtiyojlarining turli-tumanligidan madaniy borliqning turli sohalari kelib chiqqan. Kishilarning sotsial birliklari va uning tomonlari – moddiy, ma'naviy va siyosiy-huquqiy madaniyat madaniy borliqning asosiy sohalaridir. Ushbu madaniyat turlari negizida ijtimoiy hayotning – kishilarning sotsial birliklarining moddiy, ma'naviy va siyosiy-huquqiy hayot sohalari kelib chiqqan" [7,154], yoki "...madaniy borliq kishilarning sotsial birliklari va uning tomonlari – moddiy, ma'naviy va siyosiy-huquqiy madaniyatlarning korrelyativ-funksional bir butunligidan iborat bo'lib, ijtimoiy hayotning asosini tashkil etadi. Bunda kishilarning sotsial birliklari ijtimoiy hayotda sotsial substrat (ya'ni asos) va harakatlantiruvchi kuch kabi ko'rinishlardagi sotsial asos qonuni maqomiga egadir. Chunki kishilar va ularning sotsial birliklari bo'lmasa, ijtimoiy hayotning qolgan qismlari ham bo'lmaydi. Shuningdek, sotsial substrat, ya'ni kishilarning sotsial birliklari o'zgarsa ijtimoiy hayot ham o'zgaradi. Demak, kishilarning sotsial birliklari ijtimoiy hayotda belgilovchilik rolini o'ynaydi" [8,157], degan ijtimoiy-falsafiy qoidalarining kelib chiqishi yuqoridagi fikrlarning faktlaridir. Demak, millat kishilarning sotsial birliklari tizimida asosiy o'rinni egallaydi va milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining asosiy va belgilovchi subyekti hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi Endi tarixni dialektik madaniy tushunish asosida chiqarilgan ta'rif bilan ta'riflarning qiyosiy tahliliga e'tibor beraylik. Bu qiyoslashdan maqsad milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining bosh masalasini oydinlashtirishdir. "Shunday qilib, bizningcha, - deydi S.Abduxalikov, - millat umumiy etnik asos bo'yicha o'ziga xos mikrosotsial birlik, moddiy, ma'naviy (shu jumladan, til), siyosiy-huquqiy madaniyatlarga ega bo'lgan insonlarning madaniy-tarixiy birligidir".[9,180]. Demak, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, millat madaniy tarixiy hodisadir. Tarixni dialektik madaniy tushunishga asoslangan ushbu ta'rifda millatning etnogenez birligi hisobga olingan. Millatning etnogenez birligini hisobga olmaslik milliy o'zlikni anglashni unutishga olib boradi. Xo'sh, milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasini bilishda ushbu parametrlarni hisobga olmaslik, qator salbiy oqibatlariga olib kelmaydimi? Bugungi kunda Tog'li Qorabog'dagi etnik janjal-muammolar ushbu fikrlarning tasdig'i emasmi?! Shuning uchun ham S.Otamuratov milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasi subyektlarning o'ziga xosligidan kelib chiqishini ko'rsatib millatga quyidagicha ta'rif beradi: Millat deganda, kishilarning yagona til, milliy o'zlikni anglash ruhiyati, ma'naviyati, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar yagonaligi asosida ma'lum hududda yashovchi, o'z davlatiga ega bo'lgan, o'zaro iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi hamda yaratuvchi kishilarning mustaqil subyekt sifatida etnik birligi tushuniladi.

Ma'naviy-madaniy birlik millatning navbatdagi tomonlari yoki belgilaridan biridir. Ma'naviy-madaniy birlik tizimida til va xalqlarning ruhiyati, jumladan, mentaliteti ham o'ziga xos o'ringa ega. Til va xalqning ruhiyati millatning ma'naviy-madaniy birligi tizimida amal qiladi.

Millatning navbatdagi belgisi – siyosiy-huquqiy madaniy birligi stalincha ta'rifda hisobga olinmagan. Oddiy savol: agar davlatchilik bo'lmasa, millatning territoriya birligi, qanday qaror topadi? Xalqlarning, jumladan, har bir millat va elatlarning o'z taqdirlerini o'zlari belgilashi huquqlari milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining markaziy masalasidir. Bu tizimda har bir insonning individ sifatidagi huquqlari ham, millat darajasidagi huquqlari ham mavjud bo'lib, amal qilishlari esa demokratik shart-sharoitlarni taqozo etadi.

Xo'sh, demokratik o'zgarishlardagi asosiy masala millat va elatlarning o'z taqdirlerini o'zlari belgilashi huquq ekan, unda huquqning o'zi nima? Qanday belgilari bor va genezisleri nimalardan iborat?

Huquq munosabatdir. Huquq ijtimoiy munosabatlardagi asosiy momentlardir. Huquq subyektlar o'rtasidagi tenglik, adolat va erkinlik kabi ijtimoiy munosabatlarning majburiylik va kelishuvchilik hamda ularni kafolatlash darajalarini taqozo etuvchi asosiy bog'lanishlaridir.

Demak, tenglik, adolat va erkinlik huquqning sifat belgilari hisoblanadilar.

Xulosa. Tenglikni huquq subyektlarining birinchi tomoni – huquq layoqati taqozo etadi va keltirib chiqaradi. Olaylik, millatlarning mavjudligi obyektiv tarixiy qonuniyatlidir. Katta millat bor, kichik millatlar bor. Kuchli millatlar bor, kuchsiz millatlar bor. Ularning shunday holatlarda bo'lishlari obyektiv shartlangandir. Shuning uchun kuchli kuchsizga zulm o'tkazishi yoki yo'q qilishi mumkin emas.

Muomala layoqati huquq subyektlarining ikkinchi tomonidir. Muomala layoqati, u millatlar o'rtasida bo'lsin, adolatni taqozo etadi va keltirib chiqaradi. Adolat tenglikning to'ldirilishi, kafolatlanishi va rasmiylashtirilishidir. Mana shu asosda millatlarning ham o'z vakolatlari doirasidagi erkinliklari kelib chiqadi. Erkinlik huquqning uchinchi sifat belgisidir. "Huquq – bu mustaqillikdir", degan edi. Millat mustaqilligi esa milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining bosh masalasidir. "Huquq hokimiyat orqali, pozitiv huquq – qonun va qonunosti aktlarini qabul qilish va realizatsiya qilish orqali yuz beradi." [10,8-9].

Demak, huquqning uchta belgisi – tenglik, adolat va erkinlik milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining fundamental asoslarini tashkil etadi. Shuning uchun ham ularni milliy g'oyalarda aks ettirish va demokratik o'zgarishlar orqali amalga oshirishini ta'minlash millat mustaqilligining shartidir.

Foydalanilgan adbiyotlar ro'yhati:

1. Qur'oni Karim. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. – T.: “Cho‘lpon”, 1992. 144-bet.
2. Hadis. – T.: “Fan”, 1990. 140-bet.
3. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash ma'suliyat. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. 12-bet.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. 45-bet.
5. Axmedov I.N. Milliy g'oya shakllanishi, rivojlanishi va amal qilish qonuniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili (O‘zbekiston misolida). – Fals.fan.bo'yicha fals.dokt. (PhD) diss. avt-ti. – Samarqand-2020. 18-bet.
6. Axmedov I.N. Milliy g'oya shakllanishi, rivojlanishi va amal qilish qonuniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili (O‘zbekiston misolida). – Fals.fan.bo'yicha fals.dokt. (PhD) diss. avt-ti. – Samarqand-2020. 17-bet.
7. Abduxalikov S. Vijdon erkinligi: metodologiya muammolari. – T.: “Fan”, 1997. 154-bet.
8. Abduxalikov S. Vijdon erkinligi: metodologiya muammolari. – T.: “Fan”, 1997. 157-bet.
9. Abduxalikov S. Vijdon erkinligi: metodologiya muammolari. – T.: “Fan”, 1997. 180-bet.
10. Abduxalikov S.O. Demokratiya va fuqarolik jamiyati dialektikasi.// “Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati” mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya tezislari to'plami (2006 yil 25 noyabr). – T.: TDYuI nashriyoti, 2006. 8-9-betlar.